



<b>Fan nomi:</b>	Tadbirkorlik va biznes
<b>Fan turi:</b>	Tanlov fan
<b>Fan kodi:</b>	
<b>Bosqich:</b>	2
<b>Semestr:</b>	4
<b>Ta'lim shakli:</b>	Kunduzgi
<b>Mashg'ulotlar shakli va semestrga ajratilgan soatlar:</b>	150
Ma'ruza	30
Amaliy mashg'ulotlar	30
Laboratoriya ishi	-
Seminar	-
Mustaqil ta'lim	90
<b>Sinov birligi miqdori:</b>	5
<b>Baholash shakli:</b>	Yozma imtixon
<b>Fan tili:</b>	O'zbek

#### Kurs haqida qisqacha ma'lumot (QM)

<b>QMI</b>	<p><b>Ushbu kursning maqsadi</b> – talabalarda tadbirkorlik asoslari, mohiyati, uning turlarini, biznes reja ishlab chiqishning nazariy asoslari hamda amaliy bilim va ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.</p> <p><b>Fanning vazifasi</b> – tadbirkorlik qobiliyati va tadbirkorlikda muvaffaqiyatga erishish yo'llarini o'rganish, biznes reja va uning tarkibiy qismlariga bulgan asosiy talablarni tadkik qilish; biznes rejani mustakil ishlab chikish kunikmasini shakllantirish; iktisodiy kursatkichlarga ishlov berish ko'nikmalarini shakllantirish, ishlab chikish, bozor tavsifi va tendensiyalarini aniqlash, biznes rejani ishlab chiqishda dasturiy maxsulotlardan foydalanish;</p>
------------	--

#### Fanni o'zlashtirish uchun zarur boshlang'ich talablar

Mazkur fanni o'zlashtirish fanlarni uzviyligini inobatga olgan holda umumkasbiy va mutaxassislik fanlarini o'rganishda olingan bilimlarga asoslanadi.

#### Ta'lim natijalari (TN)

<b>TN1</b>	Tadbirkorlik va biznes bo'yicha umumiy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi, shuningdek, ulardan foydalanish bo'yicha aniq tasavvurga ega bo'lishi lozim.
<b>TN2</b>	Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishda qo'llaniladigan asosiy usullar va vositalardan (masalan, biznes-reja tuzish, moliyaviy tahlil, marketing strategiyalari) foydalanishni o'rganish, ularning afzalliklarini tushunish va egallagan bilimlarini real biznes loyihalarida qo'llay olish bo'yicha malakaga ega bo'lishi kerak.
<b>TN3</b>	Tadbirkorlik va biznesning asosiy yo'nalishlari va bozor tahlilini amalga oshirish usullarini bilish, shuningdek, biznes jarayonlarini samarali boshqarish va rivojlantirish vositalaridan amalda foydalanish bo'yicha tasavvurga ega bo'lishi zarur.
<b>Mashg'ulotlar shakli: ma'ruza (M)</b>	
<b>Soat</b>	

Tadbirkorlik va biznes

M1	Tadbirkorlik va biznesni tashkil etishning moxiyati	2
M2	Imkoniyatlarni aniqlash	2
M3	Tadbirkorona fikrlash tarzi	2
M4	Minimal resurslar bilan ish boshlash	2
M5	Minimal resursli startaplar: minimal mahsulot, tezkor sinov va isrofgarchilikdan qochish	2
M6	Mijozlarni aniqlash	2
M7	Mijozlar bilan mahsulotni sinovdan o'tkazish	2
M8	Biznes tashabbusining boshlanishi: biznes g'oyani shakllantirish, bozor tahlili, biznes-reja tuzish va boshlang'ich resurslarni tayyorlash	4
M9	Moliyaviy barqarorlik: loyihaning yoki biznesning daromad keltirish qobiliyati	4
M10	Mahsulot yaratish jarayonidagi tekshiruvlar: kutilgan va haqiqiy natijalar o'rtasidagi farqlarni aniqlash	4
M11	Prototip yaratish: asosiy funksiyalarini sinab ko'rish, foydalanuvchilardan fikr olish va potensial muammolarni aniqlash va ularni hal qilish	4
<b>Jami:</b>		<b>30</b>
<b>Mashg'ulotlar shakli: amaliyot mashg'ulot (A)</b>		<b>Soat</b>
A1	Tadbirkorlik va biznesni tashkil etishning moxiyati	2
A2	Imkoniyatlarni aniqlash	2
A3	Tadbirkorona fikrlash tarzi	2
A4	Minimal resurslar bilan ish boshlash	2
A5	Minimal resursli startaplar: minimal mahsulot, tezkor sinov va isrofgarchilikdan qochish	2
A6	Mijozlarni aniqlash	2
A7	Mijozlar bilan mahsulotni sinovdan o'tkazish	2
A8	Biznes tashabbusining boshlanishi: biznes g'oyani shakllantirish, bozor tahlili, biznes-reja tuzish va boshlang'ich resurslarni tayyorlash	4
A9	Moliyaviy barqarorlik: loyihaning yoki biznesning daromad keltirish qobiliyati	4
A10	Mahsulot yaratish jarayonidagi tekshiruvlar: kutilgan va haqiqiy natijalar o'rtasidagi farqlarni aniqlash	4
A11	Prototip yaratish: asosiy funksiyalarini sinab ko'rish, foydalanuvchilardan fikr olish va potensial muammolarni aniqlash va ularni hal qilish	4
<b>Jami:</b>		<b>30</b>

№	Mustaqil ta'lim (MT)	soat
MT1	Ma'ruzada o'tilgan mavzularni adabiyot va ma'ruza matnlaridan foydalanib mustahkamlash	30
MT2	Amaliy mashg'ulotlar materiallarini mavzu bo'yicha adabiyotlar va uslubiy ko'rsatmalardan foydalanib o'zlashtirish	30
MT3	Har bir talabanning akademik o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda tanlangan mavzular bo'yicha 1 ta referat tayyorlash: 1. Minimal resursli startap loyixasini taqdim etish. 2. Moliyaviy barqarorlik: loyihaning yoki biznesning daromad keltirish qobiliyatini taqdim etish.	30
<b>Jami:</b>		<b>90</b>

### Ta'lim strategiyasi

Kurs kredit tizimida tashkil etilib, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Ma'ruzalar: Tadbirkorlik va biznes rejalashtirishning nazariy asoslari.
- Amaliyotlar: Biznes muammolarini tahlil qilish va yechish ko'nikmalari.
- Taqdimotlar: Mavzularni vizual tushuntirish uchun materiallar.
- Vazifalar: Mustaqil va amaliy topshiriqlar.
- Yakuniy nazorat: Semestr oxirida universitetda imtihon.

O'quv materiallari

- Elektron ma'ruza matnlari.
- Taqdimot materiallari.
- Amaliyot uchun uslubiy ko'rsatmalar.
- Nazorat savollari.
- Elektron darsliklar va qo'llanmalar.

Ma'ruzalarda tadbirkorlik tushunchalari, biznes rejalashtirish jarayoni va real misollar taqdimotlar orqali o'rgatiladi. Talabalarga qo'shimcha materiallar (darsliklar, qo'llanmalar) va foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar beriladi. Har mavzudan so'ng nazorat savollari taqdim etiladi.

Amaliyotlarda biznes-reja tuzish, bozor tahlili, moliyaviy hisob-kitoblar va case study tahlillari bo'yicha topshiriqlar beriladi. Bajarish tartibi ko'rsatmalar orqali tushuntiriladi. Topshiriqlar individual bajariladi.

Talabalar materiallarni mustaqil o'rganadi, qo'shimcha adabiyotlardan foydalanadi va mustaqil topshiriqlar (masalan, biznes g'oyasi ishlab chiqish) bajaradi.

Baholash

- Mavzu bo'yicha nazorat savollari va testlar.
- Amaliy topshiriqlar baholanadi.
- Mustaqil ishlar (biznes-reja) umumiy bahoga kiritiladi.

Barcha mavzularni o'zlashtirgan talabalar semestr oxirida universitetda yakuniy imtihonda ishtirok etadi.

### Talabalar bilimni baholash

Talabalar bilimni baholash semestr va oraliq nazorat davomida o'qitish materiallarini o'zlashtirish ko'rsatkichi (test, topshiriq va yozma ish natijasi)ga asoslangan.

**Tadbirkorlik va biznes**

Reyting baholash turlari	%	O'tkazish vaqti
<b>Joriy baholash:</b>	<b>20</b>	
Amaliy mashg'ulotlarda faolligi, savollarga to'g'ri javob berganligi, amaliy topshiriqlarni bajarganligi uchun: 1-amaliy ish uchun: 2% 2-amaliy ish uchun: 3% 3-amaliy ish uchun: 3% 4-amaliy ish uchun: 2% 5-amaliy ish uchun: 2% 6-amaliy ish uchun: 2% 7-amaliy ish uchun: 2% 8-amaliy ish uchun: 2% 9-amaliy ish uchun: 2%	20	Semestr davomida
<b>Oraliq baholash:</b>	<b>30</b>	
Oraliq nazorat yozma ish (ma'ruzachi o'qituvchi tomonidan qabul qilinadi).	9	14-hafta
Mustaqil ta'lim topshiriqlarining o'z vaqtida va sifatli bajarilishi: - referat tayyorlash: 7% - taqdimot tayyorlash va himoya qilish: 7 % - taqdimot tayyorlash va himoya qilish: 7 %	21	Semestr davomida
<b>Yakuniy nazorat</b>	<b>50</b>	16-hafta
<b>JAMI:</b>	<b>100</b>	

<b>Asosiy adabiyotlar</b>	
1.	"The Lean Startup: How Today's Entrepreneurs Use Continuous Innovation to Create Radically Successful Businesses" by Eric Ries
2.	"Disciplined Entrepreneurship: 24 Steps to a Successful Startup" by Bill Aulet
<b>Tavsiya qilinadigan qo'shimcha adabiyotlar</b>	
1.	"Business Model Generation" by Alexander Osterwalder and Yves Pigneur
2.	Boltabayev M., Qosimova M., Ergashxodjayeva Sh., G'oyibnazarov B., Samadov A., Otajonov Sh. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik: Darslik. - T.: TDIU, 2011. -333 bet.

**Fan o'qituvchisi to'g'risida ma'lumot**

<b>Dastur mualliflari:</b>	Babaxanova Dildora Rustamovna
<b>E-mail:</b>	Dildorababaxanova4@gmail.com
<b>Tashkilot:</b>	Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti, "AKT sohasida iqtisodiyot" kafedrası.

Mazkur Sillabus universitet Kengashining 2025-yil 28.04 dagi 8/9 (70/751) - son bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

Mazkur sillabus "AKT sohasida iqtisodiyot va menejment" fakultetining 2025-yil 28.04 dagi 10-sonli majlis bayoni bilan tasdiqlangan.

Mazkur sillabus "AKT sohasida iqtisodiyot" kafedrasining 2025-yil 28.04 dagi 99-sonli majlis bayoni bilan tasdiqlangan.

O'quv uslubiy boshqarma  
boshlig'i



A.K. Ergashev

Kafedra mudiri

N.A. Iminova

Tuzuvchi:

D.R. Babaxanova



